



UO•K: 821.512.133.09-3

Axmad BAISOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: a.baisov@cspi.uz

DSc, professor T.Kuchkarov taqrizi asosida

HARMONY OF THEME AND IDEA IN ENGLISH AND UZBEK STORYTELLING

Annotation

The principle of transition from tradition to non-tradition is prominent in Uzbek and English storytelling. Any artistic idea is a product of a certain period. In modern Uzbek and English narratives, loneliness, sufferings, betrayal, and family quarrels that befell mankind after the war are mostly seen. Our opinion is a clear proof of the efforts of the flag-bearers of existentialism to express the depressing nature of the human spiritual world. In order to clarify the direction of the new era storytelling, comparative research, and to clarify the controversial aspects, the large-scale concise expressions led to the cunning expansion of the boundaries of artistic thinking.

Key words: Theme, colonel, polyphonic, play, muqanna, siqiq.

ГАРМОНИЯ ТЕМЫ И ИДЕИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ПОВЕСТВОВАНИИ

Аннотация

Принцип перехода от традиции к нетрадиции ярко выражен в узбекском и английском повествовании. Любая художественная идея является продуктом определенного периода. В современных узбекских и английских повествованиях чаще всего встречаются одиночество, страдания, предательство и семейные ссоры, постигшие человечество после войны. Наше мнение является наглядным доказательством усилий знаменосцев экзистенциализма выразить удручающую природу духовного мира человека. Для того чтобы прояснить направление повествования новой эпохи, сравнительные исследования и прояснить спорные аспекты, масштабные лаконичные выражения привели к хитрому расширению границ художественного мышления.

Ключевые слова: Тема, полковник, полифонический, пьеса, муканна, сикик.

INGLIZ VA O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA MAVZU VA G‘OYA UYG‘UNLIGI

Anotatsiya

O‘zbek va ingliz hikoyachiligida an‘anadan – noan‘anaga o‘tish tamoyili ko‘zga tashlanadi. Har qanday badiiy g‘oya ma‘lum bir davrning hosilasi. Zamonaviy o‘zbek va ingliz hikoyachiligida asosan, yolg‘izlik, urushdan keyingi insoniyat boshiga tushgan ko‘rgiliklar, sotqinlik, oilaviy mashmashalar qabarib ko‘rinadi. Ekzistensializm bayroqdorlari inson ruhiy olamining tushkun manerasini ifodalash yo‘sinidagi izlanishlari fikrimiz yorqin dalilidir. Yangi davr hikoyachiligi qaysi yo‘ldan borishi, qiyosiy yo‘sinda tadqiq qilish, bahs-munozara uyg‘otadigan jihatlariga aniqlik kiritish maqsadida katta o‘lchamdagi ixcham ifodalar badiiy tafakkur sarhadlarini hiyla kengayishiga olib keldi

Kalit so‘zlar: Tema, polkovnik, polifonik, pyesa, muqanna, siqiq.

Kirish. Ingliz va o‘zbek hikoyachiligida mavzu va g‘oya uyg‘unligi adabiy an‘analarning turli-tumanligini ko‘rsatib beradi. Har ikkala adabiyotda ham mavzu va g‘oya uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi, ammo ular o‘z madaniy va tarixiy kontekstlariga qarab turlicha namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikka oid lug‘atda: “Mavzu (arabcha qo‘yilgan, tartibga solingan) – badiiy mazmun komponenti, asarda qo‘yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma‘naviy-axloqiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot material; tema. Adabiyotshunoslikda mavzu (tema) termini ikki ma‘noda ishlatiladi: 1) asarda tasvirlanayotgan hayot material; 2) asarda badiiy idrok etish uchun qo‘yilgan ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolar majmui. Ingliz hikoyachiligida mavzu va g‘oya uyg‘unligi ko‘pincha inson tabiatini, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni va shaxsiy erkinlik kabi masalalarni chuqur tahlil qilish orqali namoyon bo‘ladi. G‘arb adabiy-badiiy tafakkurining ta‘sir natijasida ijodkorlar yangidan-yangi ifodalarni kashf qildilar. Hikoyaga mavzu tanlashda ham, g‘oyaviy-badiiy o‘ziga xoslikka erishish borasida ham anchayin eksperimentlarni sinovdan o‘tkazdi.

Borliqdagi narsa-hodisalar Yaratganning iznisiz biror soniya harakatlanmaydi. Badiiy asardagi har qanday material

ham yozuvchi ishtirokisiz yuzaga chiqishi qiyin. Chunki uni harakatga keltiruvchi asosiy impuls yozuvchining olam va odam haqidagi tasavvurlari chekiga tutashadi. “Mavzu” (yoki “tema”) hozirga qadar ikki ma‘noda qo‘llanilib kelinadi. Ba‘zilar mavzu deganda asarni tasvirlash uchun tanlab olingan hayot materialini tushunadilar. Boshqalar esa asarda ko‘tarilgan asosiy ijtimoiy muammoni mavzu, deb hisoblaydilar. Birinchi xildagi qarash nuqtayi nazaridan yondashilsa, Markaziy Osiyo xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi Hamid Olimjonning “Muqanna” pyesasining mavzusi hisoblanadi. Ikkinchi xil qarashga ko‘ra esa, arablar istilosidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari taqdiri qanday bo‘lganligi muammosi bu asarning mavzusini tashkil qiladi. Darhaqiqat, mavzuning bu xildagi nazariy-ilmiy jihati har bir adabiyotshunosning individual qarashlari singari tasavvur uyg‘otishi tabiiy. Hikoyadagi qisqa vaqt ichida, hayotning biror bir maishiy, ijtimoiy muammosini “qirqib” olib tasvirlashda mavzuning ham o‘rni shu mavzuga singdiriladigan voqelikni ham keltirib chiqaradi.

O‘zbek hikoyachiligida A.Qahorning ayrim hikoyalari ingliz yozuvchisi Roald Dalning poetik uslubiga, mavzu tanlashiga o‘xshab ketadi. Garchand har ikkisi ham bir davrda yashab ijod etgan bo‘lsa-da, G‘arb va sharq adabiy-

badiiy tafakkurida mavzu va g'oya mushtarakligi yaqqol ko'zga tashlanadi. XX asr o'zbek adabiyotini A.Qahhor ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Yozuvchining ixcham va siqiq bir uslubi, mavzu va muammoni to'g'ri tanlay bilishi poetik mahoratning o'ziga xosligidan dalolat beradi. Abdulla Qahhor hikoyada mavzuni shu qadar pishiq va puxta tanlaydiki, undagi hikmat va maqol, ibratli bir mulohazaga chorlovchi falsafiy aqidalar o'quvchini o'ziga rom etmasdan qo'ymaydi. Yozuvchining "Ming bir jon" hikoyasini ingliz yozuvchisi Roald Dal hikoyasi bilan qiyoslab o'rganib ko'ramiz. Hikoyadagi mavzu va g'oya maishiy muammo bilan sug'orilgan bo'lib, bir davrning ikki qiyofasi aks ettiriladi. A.Qahhor hikoya ekspozitsiyasida shu qadar psixologik kartinadan voqif etadi.

Hikoyaning "Ming bir jon" jon deb nomlanishiga e'tibor beraylik. Adib bemorning umid bilan qarab yotishlari, hayotdan ko'z yumishi mumkin chog'larida ham hech qachon ruhini tushirmasliklarini realistik ifodada shu qadar yorqin ifodalay oladiki, o'quvchi asarning mohiyatida nima aks etishiga o'zini psixologik tayyorlay boradi. Yozuvchi XX asrning 50-yillaridagi voqelikni ifodalay ekan, xuddi poetik konstruksiyani o'zgacha tarzda qiladi. "Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrdan qahramon ruhiy dunyosini izchil ravishda batafsil yoritish, "qalb dialektikasi"ni bosqichma-bosqich berish imkoni biroz cheklangan. Hikoyaga xarakterlar tayyor holda kirib keladi, shuning uchun ham hikoya janrida psixologik tahlil ko'proq situativ xarakterga ega. Hikoyada tush, gallyutsinatsiya, maktub singari shakllarni qo'llash ham ko'p uchramaydi. Bu janrdan psixologik detal, psixologik tafsilotdan foydalanish imkoniyati ko'proq; portret esa, asosan, shtrixlar tarzida ko'rinadi"[8]. Bir qarashda hikoyada o'lim bilan bog'liq tafsilotga yozuvchi dialogik konstruksiya negizida oydinlik kiritadi. Masturaning jasorati, inson har qanday sharoitda o'lim sharbatini tortishi, va, alaloqibat-da Allohga qaytishi ochiq-oydin idrok etilmasa-da, yozuvchi vaziyat va holatni qahramonlar nutqi orqali ifodalaydi. "Ming bir jon" hikoyasida mavzu va g'oyaning mutanosibligi – davrning og'riqlari fonida jonlantiriladi. Ayniqsa, retrospektiv usulda, voqealarni tartiblashtirish, komponentlar tartibli va ularning g'oyaga qarab o'sib borishi realistik prozaning yangilanib kelayotganidan shahodat beradi.

XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan ingliz adibi Roald Dalning hikoyachilikdagi mahorati shundan iboratki, u adabiy jamoatchilikda "omadi yurishgan yozuvchi" sifatida shuhrat qozonadi. Adib 1942-yildan boshlab ixcham novellalar yoza boshlaydi. Ikkinchi jahon urushini o'z ko'zi bilan ko'rib, uchuvchi sifatida qatnashib, hayotning past-u balandlarini boshidan kechiradi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning "Polkovnikning sovg'asi" nomli hikoyasida tanqidiy realizmning (Chexov, Qahhor poetik uslubiga xos) o'ziga xos namunasini ko'ramiz. Hikoyada bir oilaning Amerikacha yashash tarzi bayon qilinadi. Er-xotin orasidagi ishqiy munosabatlarning darz ketishi, xiyonat va yengil hayotga mukkasidan ketish, alaloqibat-da shaxsni fojiviy, ruhiy sinishga, xiyonatning natijada qaror topishida polifonik nutq ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hikoyaning o'ziga xos qissaga mavzu, mantiq bo'lgulik zalvor borligini sezish qiyin emas.

"Amerika – ayollar uchun ulkan imkoniyatlar mamlakati. Hozirda ular butun millat boyligining taxminan sakson besh foiziga egadirlar. Tez orada esa ular butun boylikni o'z qo'llariga olishadi. Ajrashish jarayonlari ularga katta miqdorda daromad topishning oson yo'liga aylanib qolgan. Erning o'limi ham yaxshigina daromad keltiradi va ayrim xonimlar shu yo'ldan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Ular bir kun kelib, sabrlari mukofot bilan taqdirlanishiga ishonishadi; ortiqcha zo'rliq va qon bosimi o'z ishini qiladi

va bechora er qo'lida dori solingan shishani ushlaganicha jon beradi.

Yosh amerikaliklar ajrashish va o'lim tahdididan unchalik ham tashvish chekishmaydi. Yoshlar, hattoki voyaga yetguncha ham sabrlari chidamay uylanib olishadi va o'ttizdan oshgan paytlarida kamida ikkita sobiq xotinlariga pullarini sovrishga ulgurishadi. Sohibjamollarning farovon hayot kechirishlari uchun erkaklar quldek ishlashadi. Nihoyat, kamolga yetgach, ularning qalbini zerikish va qo'rquv egallay boshlaydi. Ular kech kirishi bilan barlarga borishadi. Bu yerda viski ichib, bir-birlariga "hayotiy hikoyalar"dan so'zlashadi.

Bu hikoyalarning mazmuni bir xil. Ularda uchta qahramon bo'ladi: er, xotin va itvachcha, ma'shuq. Er – sodda va buyuk mehnatkash. Xotin – ayyor va xiyonatkor mavjudot. U itvachcha bilan birga turli nayranglar o'ylab topadi. Er esa ishonuvchan bo'lganligi uchun xotinidan shubhalanmaydi. Nahotki bechora umrining oxirigacha shunday yashab o'tsa? Shunaqa bo'lsa kerak. Lekin bir daqiqa! Kutilmaganda, er xotiniga shunday zo'r zarba beradiki, xotin o'zining mag'lub bo'lganligini his etadi"[9].

Hikoyaning ekspozitsiyasida badiiy tasvir prinsiplari A.Chexov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev, U.Hamdami singari masalaga teran kirib borish manerasi namoyon bo'ladi. Yozuvchi syujetni shu qadar qiziqarli tasvirlaydiki, adib axloq qoidalaridan bir dam nari chekkaga chiqmaydi. Mavjud hayotni qayta ishlab, qiziqarli yo'sinda yetkazishga harakat qiladi. Chunki yozuvchining maqsadi – er-xotinni biror xiyonat bilan ajratib yuborish emas, oiladagi bir vujudning ikki tomonga ayrilib ketishga sabab bo'lgan vositani ko'rsatadi. Ruhiy-ijtimoiy tengsizlik oiladagi asosiy masalalarning ildiziga olib boradigan yo'lda sodir bo'ladi. Mister va missis Biksbis ismi er va xotin hayotidan olingan voqelik o'quvchini bir o'tirishida asarni mutolaa qilishga yetaklaydi. Chunki hikoyadagi sarguzasht-tasvirlar Nyu-Yorkdagi xonadonlardan birida istiqomat qiladigan tish shifokori Mister Biksbis va Missis Biksbining hayotidan xabar beradi. Er-xotinning bir-biriga xiyonatiga asosiy sabab oilasida o'zaro tushunmovchilik va mo'maygina pul evaziga paydo bo'ladi. Missis Biksbis yolg'on evaziga o'z eriga xiyonat qilib, chekka shaharda, Baltimorga har oyda tez-tez qatnab, polkovnik bilan tanish orttirishdan boshlanadi. Yozuvchi syujetni shu qadar ixcham qurganki, mavzuning dolzarabligi, syujetni va g'oyani bir butun tarzda ifodalanishiga katta zamin hozirlaydi. E'tibor bering, yozuvchi hikoyada A.Qahhor kabi dialoglardan shu qadar unumli foydalanadiki, uning natijasida uzundan-uzun tasvirlar emas, sahnaviylik (dramadagi harakat) negizida xarakterlar o'zlarini o'zlari fosh qilib boradi. Hikoya arxitektonikasida bir-biriga mos keluvchi tasvirlar ko'p orozilligi mavjudki, unda har qanday idrok tamoyili muhim ahamiyatga ega. A voqelik ro'y berish vaqti bilan B hal etilish vaqtigacha hikoyada poetik tasvirlar muvofiqligi yaqqol seziladi. Missis Biksbis bahonasi sabab – Baltimurdagi xolasi Mod bilan umuman uchrashmaydi. Afsuski, polkovnikning xushtoriga aylangan ayol tabiatidagi o'zgarishlar shu kechakunduzda ro'y berayotgan voqelikdek taassurot uyg'otadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy g'oya to'g'risida gap ketganda, eng avvalo, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy g'oyalardan farqli tomonlarini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Badiiy g'oya yozuvchining voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettirishdan bunyodga keladi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning "Polkovnikning sovg'asi" hikoyasida badiiy g'oya uch o'lchamli olam kecha-bugun-ertaga tarzida namoyon bo'ladi. Chunki yozuvchi badiiy g'oyani silliq tarzda ixchamlashtiradiki, o'quvchi mutolaa jarayonida qiziqarli bir sarguzashtni boshidan kechiradi. Hikoyada asosiy voqelik sovg'a bilan o'z yechimini topadi. Asosiy uchta qahramonning syujet voqeligida harakatlanishi – mavzu va g'oyaning birligini ta'minlashga qaratiladi.

Ingliz va o'zbek hikoyachiligida mavzu va g'oya uyg'unligi, adabiy asarlarning asosiy ma'nosi va tasvirlanayotgan voqealarning chuqur mazmunini ochib berish orqali namoyon bo'ladi. Ingliz hikoyachiligida bu ko'proq ijtimoiy va falsafiy masalalar orqali, o'zbek hikoyachiligida

esa milliy qadriyatlar va axloqiy masalalar orqali amalga oshiriladi. Har ikkala adabiyotda ham mavzu va g'oya uyg'unligi asarning badiiy qiymatini oshirib, uning o'quvchi qalbiga yetib borishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Shofqorov A.M "A.Qahorning so'z tanlash mahorati" Academic Research in Educational Sciences Volume 3/Issue 5/2022 1162-1166 b <https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-qahorning-so-z-tanlash-mahorati/viewer>
2. Quronov D., Rahmonov V. G'arb adabiytanqidiy tafakkuri ocherklari. –T.: 2008. –B.55.
3. Литературные манифесты западноевропейских классицистов .- С.182
4. Худой бердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Т: "Шарк". 2008. –Б.64.
5. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T: "O'zbekiston. 2002. –B.13.
6. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-ming-bir-jon-hikoya/>
7. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/roald-dal/roald-dal-polkovnikning-sov-asi-iko/>
8. https://buxdu.uz/media/aftoreferat/Автореферат_Кобилова_%2002.09.2020.pdf
9. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/roald-dal/roald-dal-polkovnikning-sov-asi-iko/>